

**O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yilning 2 yarim yilligiga mo‘ljallangan
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ul vazir o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘limlari, tarkibiy korxona va tashkilotlar
1.	Keng jamoatchilik, xalqaro va mahalliy ekofaollar, ekologiya sohasi ilmiy hamjamiyati takliflarini inobatga olgan holda tuproqning unumdor qatlamini saqlab qolish va yashil hududlarni asrash maqsadida: ko‘p qavatli turar joylarni loyihalash, qurish va foydalanishga qabul qilishda oqova, yomg‘ir va texnik suvlardan sug‘orishda foydalanish tizimlarini tashkil etish majburiy etib belgilanadi (PF-16-son Farmonning 15.5-bandi).	2025-yil dekabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Loyiha faoliyati va seysmik xavfsizlik talablarini muvofiqlashtirish boshqarmasi
2.	Nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’lim sifatini oshirish (PF-16-son Farmonning 1-ilova 38.1-bandi).	2025-yil sentabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlari ta’minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo‘limi
3.	Savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish (PF-16-son Farmonning 4-ilova 74.2-bandi).	2025-yil dekabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi
4.	Zarafshon shahridagi markaziy qozonxonani davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish choralari ko‘rish (PF-16-son Farmonning 4-ilova 82-bandi).	2025-yil noyabr	Vazir o‘rinbosari O.Jo‘rayeva Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSh va investitsiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi
5.	Qurilish materiallari va uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etishni belgilovchi tartibni amaliyotga tadbiq etish (PF-16-son Farmonning 5-ilova 19-bandi).	2025-yil avgust	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Pudrat bozori hamda tender, reyting va buyurtmachi tizimini rivojlantirish boshqarmasi
6.	Yil yakuniga qadar 108 suv inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini yakunga yetkazish choralari ko‘rish (PF-16-son Farmonning 6-ilova 3-bandi).	2025-yil dekabr	Vazir o‘rinbosari O.Jo‘rayeva Ichimlik va oqova suv tizimlarini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi
7.	Iqlim o‘zgarishiga moslashish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish choralari keng targ‘ib qilish (PF-16-son Farmonning 7-ilova 17-bandi).	2025-yil noyabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlari ta’minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo‘limi

8.	Qo‘p qavatli turar joylarni loyihalash, qurilish va foydalanishga qabul qilishda shaharsozlik resurslaridan oqilona foydalanish va xavfsiz muhit yaratish nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish (PF-16-son Farmonning 8-ilova 9-bandi).	2025-yil sentabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Loyiha faoliyati va seysmik xavfsizlik talablarini muvofiqlashtirish boshqarmasi
9.	Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesish va ko‘chirib o‘tkazish tizimini tartibga solish to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi (PF-16-son Farmonning 8-ilova 24-bandi).	2025-yil avgust	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlari ta‘minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo‘limi
10.	Umumiy ovqatlanish korxonalarida hosil bo‘ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi (PF-16-son Farmonning 8-ilova 30-bandi).	2025-yil avgust	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlari ta‘minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo‘limi
11.	Yangi qurilgan turarjoy va noturar bino va inshootlarda minimal energiya sarfini ta‘minlash (PF-16-son Farmonning 16-ilova 3.2-bandi).	2025-yil dekabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlari ta‘minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo‘limi
12.	Obyektning qurilish-montaj ishlari o‘z vaqtida tugallanmagan va undan foydalanish uchun ruxsatnoma olinmagan taqdirda har bir kechikkan kun uchun alohida qat‘iy belgilangan jarimalar joriy qilinadi va shartnoma yuzasidan muddatlar faqat ulushdorning roziligini olgan holda qo‘shimcha shartnoma tuzish orqali uzaytiriladi. Bunda obyekt loyiha-smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan muddatdan olti oy o‘tgandan keyin foydalanishga topshirilgan taqdirda, ulushdor “eskrou” hisobvarag‘idagi deponentlangan mablag‘larni ulushli shartnomani bir tomonlama bekor qilish orqali qaytarib olishi mumkin (PF-11-son Farmonning 2.i-bandi).	2025-yil dekabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Iqtisodiy islohotlar va strategik rejalashtirish bo‘limi
13.	Qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektidan foydalanish uchun ruxsatnomasi mavjud bo‘lmagan obyekt qurilishiga ulushdorlarning mablag‘larini jalb qilish uchun turar va noturar joyni naturada olish huquqini beruvchi qimmatli qog‘ozlarni taklif qilish va sotish hamda mazkur Farmonda belgilangan tartib talablariga javob bermaydigan boshqa shartnomalarni tuzish taqiqlanadi (PF-11-son Farmonning 2.k-bandi).	2025-yil dekabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Iqtisodiy islohotlar va strategik rejalashtirish bo‘limi

14.	Xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda quyidagilarni nazarda tutuvchi Uy-joy va ipoteka bozorini barqaror rivojlantirishning milliy strategiyasi loyihasini ishlab chiqib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish (PF-26-son Farmonning 19-bandi).	2025-yil avgust	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Uy-joylar qurilishini rivojlantirish va maqsadli dasturlarni monitoring qilish boshqarmasi
15.	“Yangi O‘zbekiston” massivlari va boshqa uy-joyga talab yuqori hududlarda ko‘p qavatli uylarni barpo etish maqsadli ko‘rsatkichlarini belgilangan muddatlarda sifatli va to‘liq amalga oshirilishini monitoring qilish (PF-26-son Farmonning 4-ilova 3.3-bandi).	2025-yil iyul	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Uy-joylar qurilishini rivojlantirish va maqsadli dasturlarni monitoring qilish boshqarmasi
16.	Tadbirkorlik subyektlariga “yashil tadbirkor” maqomini berish tizimini joriy etish (PF-50-son Farmonning 9-ilova 49.1-bandi).	2025-yil sentabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlarini ta‘minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo‘limi
17.	2025-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa dasturlar doirasida davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlash bo‘yicha ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlarida: qurilish jarayonida energiya tejamkor materiallar va texnologiyalardan foydalanilishini; ushbu tashkilotlarda majburiy tartibda elektr energiyasi iste‘molining kamida 30 foizini qoplashga mo‘ljallangan quyosh panellari o‘rnatilishini nazarda tutsin (PF-152-son Farmonning 9.b-bandi).	2025-yil noyabr	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Loyiha faoliyati va seysmik xavfsizlik talablarini muvofiqlashtirish boshqarmasi
18.	“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida pudrat tashkilotlarining lizingga olingan texnikasini ham inobatga olishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritish (PF-229-son Farmonning 2-ilova 35-bandi).	2025-yil avgust	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Pudrat bozori hamda tender, reyting va buyurtmachi tizimini rivojlantirish boshqarmasi
19.	Tajribali boshqaruv servis kompaniyalari tomonidan kambag‘al oilalar a‘zolarini kasbga o‘qitishni yo‘lga qo‘yish; O‘qishni bitirgan 2 000 nafar aholini boshqaruv servis kompaniyalari va qurilish tashkilotlariga ishga qabul qilish (PQ-12-son qarorning 5-ilova 25.2-bandi).	2025-yil iyul-dekabr	Vazir o‘rinbosari O.Jo‘rayeva, Ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti
20.	Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari tomonidan hududlarni ko‘kalamzorlashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalarini orqali kambag‘al aholi bandligiga ko‘maklashish; Ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish va yashil hududlarni tashkil qilish doirasida 1 000 nafar kambag‘al oilalar a‘zolarini bandligini ta‘minlash (PQ-12-son qarorning 5-ilova 26-bandi).	2025-yil iyul-dekabr	Vazir o‘rinbosari O.Jo‘rayeva, Ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti

21.	Mazkur qarorga 3-ilovaga muvofiq vakolatli organlar tomonidan davlat xizmatlarini xususiy sektor tomonidan ko'rsatish tartiblarini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish (PQ-78-son qarorning 5-ilova 2.1-bandi).	2025-yil noyabr	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi
22.	Buxoro viloyatidagi ijtimoiy soha va davlat muassasalari binolarining energiya samaradorligini oshirish va ularning issiqlik ta'minotini yaxshilash loyihalarini amalga oshirish (PQ-100-son qarorning 1-ilova 38.1-bandi).	2025-yil sentabr	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlarini ta'minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo'limi
23.	"Navoiy viloyatining Navoiy shahri hamda Uchquduq va Konimex tumanlarida issiqlik tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda individual issiqlik punktlarini o'rnatish" loyihasining loyiha baholash hujjatlarini ishlab chiqishni boshlash (PQ-100-son qarorning 4-ilova 5-band).	2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari O.Jo'rayeva Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSh va investitsiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi
24.	2026-2030-yillarda Ko'p kvartirali uylarda energiya samaradorligini oshirish loyihasi bo'yicha Jahon banki bilan muzokaralar o'tkazish hamda loyihaning dastlabki loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqishni boshlash choralarini ko'rish (PQ-100-son qarorning 7-ilovasi 6.1-band).	2025-yil iyul-dekabr	Vazir o'rinbosari O.Jo'rayeva Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSh va investitsiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi
25.	Xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinadigan mablag'lar hisobidan 2026-2030-yillarda ko'p kvartirali uy-joylarning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dastur ishlab chiqish. Davlat dasturini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda tasdiqlash uchun Prezident Administratsiyasiga kiritish (PQ-100-son qarorning 7-ilovasi 6.3-band).	2025-yil iyul	Vazir o'rinbosari O.Jo'rayeva, Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti
26.	2025-2030-yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida issiqlik ta'minoti tizimi obyektlarini qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha manzilli dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritish (PQ-100-son qarorning 7-ilova 20-band).	2025-yil iyul	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva Issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi
27.	Bosqichma-bosqich viloyat markazlari hamda yirik shaharlar issiqlik ta'minotini elektron modellashtirish asosida issiqlik ta'minotini rivojlantirish sxemalarini (elektron model) ishlab chiqish (PQ-100-son qarorning 7-ilova 21-band).	2025-yil sentabr	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva Issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi
28.	Issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tarif siyosatini takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish (PQ-100-son qarorning 7-ilova 27-band).	2025-yil oktabr	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva Issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi
29.	Issiqlik ta'minotining yopiq tizimiga o'tkazishda ko'p kvartirali uy-joylar va boshqa muassasalarga o'rnatilgan individual issiqlik punktlarini (IIP) hamda	2025-yil avgust	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva

	ichki issiqlik va issiq suv tarqatuvchi yotiq tizimlarni saqlash va ekspluatatsiya qilish qoidalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritish (PQ-100-son qarorning 7-ilova 31-band).		Issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi
30.	Quyidagilarga shartnomalarning o'z vaqtida rasmiylashtirilishini ta'minlash majburiyati yuklatilsin: Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga obyektlarni davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug'urta qilish shartnomalarini (PQ-108-son qarorning 4.4-bandi).	2025-yil sentyabr	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Iqtisodiy islohotlar va strategik rejalashtirish bo'limi
31.	20 ta Davlat obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarini joriy etish (PQ-132-son qarorning 2.13-ilova 32.1-bandi).	2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlarini ta'minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo'limi
32.	Davlat-xususiy sheriklik asosida "Nukus va Buxoro shaharlari issiqlik ta'minoti tizimlarida bir vaqtning o'zida ikki turdagi energiya ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi kogeneratsiya texnologiyalarini joriy etish" loyihasini loyiha baholash hujjatlarini ishlab chiqish choralari ko'rish (PQ-179-son qarorning 1-ilova 44-bandi).	2025-yil avgust	Vazir o'rinbosari O.Jo'rayeva Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSh va investitsiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi
33.	Nurafshon shahridagi toifasi o'zgartirilayotgan yer uchastkalaridan maqsadli foydalanishga qaratilgan master-reja ishlab chiqish va shaharning bosh rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin (PQ-384-son qarorning 11.1-bandi).	2025-yil noyabr	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi
34.	Nogironligi bo'lgan shaxslarga sport bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratish va mavjud infratuzilmani moslashtirish (PQ-389-son qarorning 2-ilova 8.1-bandi).	2025-yil noyabr	Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlarini ta'minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo'limi
35.	Direksiya tomonidan Turistik zonani rivojlantirishni nazarda tutuvchi master reja ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlasin (PQ-424-son qarorning 5.3-bandi).	2025-yil oktyabr	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi
36.	Belgilansinki, Dastur doirasida zamonaviy standartlarni keng joriy qilish, shu jumladan, loyihalashtirilayotgan binolarda energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan, ekologik toza va energiya samaradorligi yuqori bo'lgan qurilish materiallaridan foydalanish inobatga olinmagan holatlarda yangi obyektlar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ekspertizadan o'tkazilmaydi. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi yangidan boshlanadigan obyektlar bo'yicha	2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Shaharsozlikda imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlarini ta'minlanishini muvofiqlashtirish, energiya samaradorlik va ekologik diplomatiya bo'limi

	loyiha- smeta hujjatlarini ekspertiza qilishda mazkur bandda keltirilgan talablarga rioya etilishini ta'minlash choralari ko'rsin (PQ-454-son qarorning 3-bandi).		
37.	Dasturning asosiy parametrlari, maqsadli ko'rsatkichlari va manzilli ro'yxatlari belgilangan muddatlarda sifatli va to'liq amalga oshirilishini monitoring qilish. Har oy yakuni bilan ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish (PQ-454-son qaror).	2025-yil har oyda	Vazir o'rinbosari T.Alimatov, Uy-joylar qurilishini rivojlantirish va maqsadli dasturlarni monitoring qilish boshqarmasi
38.	Jahon banki ishtirokidagi "Andijon, Chirchiq, Buxoro va Samarqand shaharlarida markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti tizimini rekonstruksiya qilish va energiya samaradorligini oshirish" loyihasini yakunlash choralari ko'rish (Vazirlar Mahkamasining 53-son qarori Investitsiya dasturi).	2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari O.Jo'rayeva Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSh va investitsiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi
39.	2025-2026-yillarda Andijon shahrining Bosh rejasini "Yangi Andijon" shahri hududini ham kiritgan holda qayta muvofiqlashtirish choralari ko'rsin (11-2024-son bayonning 10-band).	2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi
40.	Marg'ilon shahrining bosh rejasini qaytadan ishlab chiqsin va tasdiqlasin (34-2024-son bayonning 63-band).	2025-yil sentabr	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi
41.	Elektron reyting hamda tender tizimini keng jamoyatchilikka yetkazish va takomillashtirish bo'yicha respublika hududlarga chiqqan holda amaliy seminar uchrashuvlarni tashkil etish (42-2023-son bayonning 7.8-bandi).	2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari T.Alimatov, Pudrat bozori hamdatender, reyting va buyurtmachi tizimini rivojlantirish boshqarmasi